

AT “Aloqabank”ning 2026-yil Biznes-rejasi

Bank missiyasi – Bankni moliya bozorida yetakchi IT-kompaniyasiga aylantirish maqsadida sodda, qulay va jozibali bank mahsulotlarini tanlash imkoniyatini beruvchi ilg‘or raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish hamda shu yo‘l bilan mijozlar uchun noyob IT-yechimlarini yaratish.

2026-yilda Bankning xizmat ko‘rsatish tarmog‘ini tijorat asosida, xususan hududiy kompleks xizmatlar ko‘rsatish markazlar (HKXKM) va kompleks xizmatlar ko‘rsatish markazlari (KXKM) joylashgan hududlarning iqtisodiy salohiyatini inobatga olgan holda kengaytirish hamda doimiy muvofiqlashtirib borish rejalashtirildi.

2026-yilda Bankning onlayn kanallar orqali bank xizmatlari sotuv hajmini raqamli bank xizmatlarini kengaytirish va onlayn ekotizimni joriy qilish evaziga oshirish rejalashtirilgan.

2026-yilda Bank tomonidan quyidagilar maqsad qilib olingan:

- Bank aktivlari va passivlarini boshqarish, resurs bazasini diversifikatsiya qilish hamda likvidlik darajasini ta‘minlash;
- Bank kredit portfeli samaradorligini oshirish va kreditlash jarayonlarini takomillashtirish;
- Korporativ mijozlar segmentini rivojlantirish;
- Chakana biznes va chakana bank mahsulotlarini rivojlantirish (Retail Banking);
- Bankning valyuta, xalqaro hamkorlik va eksportga yo‘naltirilgan bank xizmatlarini rivojlantirish;
- Risklarni boshqarish, axborot xavfsizligini ta‘minlash, ichki nazorat, ijro intizomi va komplayens standartlarini kuchaytirish;
- Bankning operatsion samaradorlik, marketing va mijoz tajribasini yaxshilash;
- Korporativ boshqaruv, HR va kadrlar salohiyatini oshirish.

Bank aktivlari va kapitali

2026-yilda Bank jami aktivlarini - **36 400,0** mlrd. so‘mga yetkazish

rejalashtirilib, jami aktivlar tarkibida foizli daromad keltiruvchi aktivlar salmog'ini va sifatini oshirish ko'zda tutildi.

2026-yilda Bank kapitalini yanada oshirish rejalashtirilgan. Mazkur chora-tadbirlar natijasida biznes-rejada belgilangan ko'rsatkichlar bajarilishi, aktivlar va kredit qo'yilmalarning o'sishini ta'minlash maqsadida Bank kapitallashuv darajasi oshiriladi. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat bank kapitali monandiligi bo'yicha talablari ta'minlanadi.

Korporativ biznes

2026-yilda bankning mavjud tarkibiy tuzilmalari hamda kompleks xizmat ko'rsatish markazlari faoliyatini yanada samarali tashkil qilish orqali bank tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan korxona va tashkilotlarning istiqbolli investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni kengaytirish ko'zda tutilgan.

Bankning o'z mablag'lari hamda jalb qilingan mablag'lar hisobiga xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga 2026-yil mobaynida 11,4 trln. so'm miqdorida kreditlar ajratilishini ta'minlab, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga ajratilgan kreditlar qoldig'ini 2026-yil yakuniga qadar 17,0 trln. so'mga yetkazish mo'ljallangan.

2026-yilda biznes-mijozlarga modulli kreditlar ajratish mexanizmlari soddalashtiriladi hamda kredit mahsulotlari takomillashtirib boriladi.

Shu bilan birga, onlayn modulli kreditlarni ajratish yo'lga qo'yiladi. Xususan, Bankning «Aloqa Business» mobil ilovasi orqali, barcha turdagi kredit risklarini minimallashtirgan holda, yuridik shaxslarga mo'ljallangan modulli kreditlar («Onlayn mikrocredit», «Onlayn faktoring xizmati», «Onlayn avtokredit», «Onlayn aylanma mablag'») amaliyotga joriy qilinadi.

AT "Aloqabank" tomonidan korporativ mijozlarga quyidagi yo'nalishlarda nokredit mahsulotlari taqdim qilinmoqda:

- buxgalteriya amaliyotlari;
- depozit jalb qilish ("Klassik", "Best invest", "Ishonch");
- valyuta amaliyotlari (Svop, Spot, konvertatsiya, konversiya va

boshqalar);

- korporativ kartalar bilan amaliyotlar;
- elektron tijorat yo'nalishi.

2026-yilda "Aloqa Business" mobil ilovasining yangilangan versiyasida kichik va o'rta biznes subyektlari hamda korporativ mijozlar uchun ko'rsatiladigan xizmatlar ko'lamini yanada kengaytirish ko'zda tutilgan bo'lib, mazkur ilova orqali biznes-mijozlarga onlayn depozitlarni joriy qilish hamda onlayn modulli kreditlar ajratish tizimini yo'lga qo'yish rejalashtirilgan. 2026-yil yakuniga qadar «Aloqa Business» mobil ilovasiga ulangan korporativ mijozlar sonini 38 mingtagacha yetkazish rejalashtirilgan. Kelgusi yilda asosiy e'tibor Bankka mo'tadil pul oqimlariga ega bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlarini jalb qilgan holda, korporativ mijozlar bazasini rivojlantirishga qaratiladi.

Bunda, aholi va yuridik shaxslardan to'lovlarni qabul qiluvchi sub'ektlarning faoliyat jarayonlarini avtomatlashtirishga ko'maklashish asosida Bankka jalb qilish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, kelgusi yillarda IT Park rezidentlari hisoblangan yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatish qamrovini kengaytirish ko'zda tutilgan. Aktiv mijozlar salmog'ini oshirish maqsadida harakatsiz hisobvaraqlarni xatlovdan o'tkazish hamda mijozlarning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, ularga qo'shimcha xizmatlarni (kross-sotuvlar) taklif etib borish bo'yicha zaruriy choralar ko'riladi.

Bankning resurs bazasini mustahkamlash, yangi mijozlar jalb qilish hisobiga talab qilib olinguncha depozitlar hajmini oshirish va muddatli depozitlar jalb qilish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshiriladi. Kelgusida barcha HKXKM va KXXKMLar tomonidan korporativ mijozlar bilan ishlash tizimini takomillashtirtirish, mijozlar bazasini kengaytirish, kredit portfelini resurs bilan ta'minlanganlik darajasini muntazam oshirib borish rejalashtirildi.

2026-yilda yuridik mijozlardan jalb qilingan depozitlar qoldig'ini 12 500 mlrd. so'mga yetkazish rejalashtirildi. Shundan, talab qilib olingunga

qadar depozitlar qoldig'i 4 375 mlrd.so'mga va muddatli depozitlar qoldig'i 8 125 mlrd.so'mga yetkaziladi. Buning natijasida, Bankning resurs bazasi barqarorligi ortishi ko'zda tutilgan.

Chakana biznes

Bankning chakana kreditlash yo'nalishida 130 mingdan ortiq mijozlarga kredit xizmatlari ko'rsatilmoqda va Bank mijozlari onlayn kreditlardan keng foydalanib kelmoqdalar.

Bugungi kunda, jismoniy shaxslarga quyidagi turdagi chakana kreditlar taklif qilinmoqda:

- Avtotransport vositasi sotib olish uchun avtokreditlar;
- Uy-joy sotib olish uchun ipoteka kreditlari;
- Mikroqarzarlar, shu jumladan onlayn mikroqarz;
- Ta'lim kreditlari va boshqa kreditlar;
- "Yashil iste'mol" krediti.

Jismoniy shaxslarni kreditlashni rivojlantirishda mijoz bilan uzoq muddatli hamkorlikka yo'naltirilgan siyosatga tayanib, quyidagi yo'nalishlarda ish olib boriladi:

- jismoniy shaxslarning kreditga layoqatliligini o'rganishda bank avtomatlashtirilgan skoring tizimini muntazam ravishda takomillashtirib borish, masofadan xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish, xizmatlar sifatini yaxshilash hamda mijozlarga qo'shimcha qulayliklar yaratish orqali qisqa muddatli kreditlar ajratish ko'lami va samaradorligini bosqichma-bosqich oshirib borish;

- kreditlash jarayonida kredit buyurtmanomalarini onlayn tarzda qabul qilish hamda an'anaviy kreditlash tizimidan onlayn kreditlash tizimiga o'tish;

- aholining talab va ehtiyojlaridan hamda bozor konyunkturasidan kelib chiqib, doimiy ravishda yangi kredit mahsulotlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilib borish;

- kredit kartalari orqali revolver kreditlar ajratishni joriy qilish;
- onlayn rejimda avtokredit ajratishni joriy qilish.

Jismoniy shaxslarni kreditlash amaliyotlarini rivojlantirish natijasida jismoniy shaxslarga yangi va qulay kredit turlarini joriy qilib, 2025-yil yakuniga qadar chakana kredit portfelini 5 441,0 mlrd. so'mga, 2026-yil yakunida 6 000,0 mlrd. so'mga yetkazish rejalashtirildi.

Aholining bo'sh pul mablag'larini jalb qilish va aholiga innovatsion bank xizmatlarini ko'rsatish aholi orasida Bankning xizmatlarini keng targ'ib qilishga zamin yaratadi. Bankning jismoniy shaxslarning omonatlari bilan ishlashdagi strategiyasida aholi uchun qulay va jozibador omonat turlarini joriy qilib borish orqali bank resurs bazasida aholi omonatlari ulushini oshirib borish maqsad qilingan.

Ushbu maqsadga erishish uchun Bank tomonidan quyidagilarni amalga oshirish rejalashtirilgan:

- Bankning «Zoomrad» mobil ilovasiga Bank mijozlarini ulanish darajasini oshirish orqali onlayn omonatlar jalb qilishni rag'batlantirish va 2026-yil yakuniga qadar omonatlarning 95 foizdan kam bo'lmagan qismini onlayn omonatlar tashkil etilishiga erishish;

- omonatlar bo'yicha aholining talab va takliflarini o'rganib, muddatli yangi omonat turlarini joriy qilish va ular to'g'risidagi axborotlarni Bankning rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlar hamda ommaviy axborot vositalari orqali muntazam ravishda e'lon qilib borish;

- muddatlari va foiz stavkasi o'zaro bog'liq bo'lgan, risk omillari hisobga olingan qulay va egiluvchan shartlardagi aholi omonatlarini mijozlar ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda amaliyotga joriy qilish va o'zgartirib borish.

Bankning 2025-yil yakunlari bo'yicha omonatchilarning hisob varaqlaridagi mablag'lar qoldig'i 5,9 trln.so'mni tashkil qilishi kutilinmoqda. 2026-yil yakunida aholidan jalb qilingan mablag'lar qoldig'i 6,7 trln.so'mga yetadi.

Bankni aholi omonatlari bilan ishlash bo'yicha yetakchi banklardan biriga aylantirish va Bank resurs bazasida aholi omonatlari salmog'ini oshirishga erishish 2026-yildagi muhim ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Moliyaviy natijalar (daromad, xarajat va foyda)

2026-yilda Bank oldiga qo'yilgan ustuvor vazifalarning bajarilishi natijasida asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarning barqaror o'sishi rejalashtirilmoqda.

Jumladan, 2026-yilda Bank daromadini 1,16 barobarga o'sishini ta'minlagan holda, 6 373 mlrd. so'mga yetkazish rejalashtirildi. Daromadlarning 4 099 mlrd. so'mi (64 foizi) foizli daromadlar, 2 274 mlrd. so'mi (36 foiz) foizsiz daromadlar tashkil etadi.

2026-yilda jami 6 023 mlrd. so'mlik Bank xarajatlarini amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lib, uning 3 073 mlrd. so'mi (51 foiz) foizli xarajatlar, 1 190 mlrd. so'mi (20 foiz) foizsiz xarajatlar va 1 760 mlrd. so'mi (29 foiz) amaliyot xarajatlaridan iborat bo'ladi.

Bankning sof foydasi 2026-yil uchun – 350,0 mlrd. so'm miqdorida rejalashtirilgan. Natijada Bankning kapital rentabelligi ko'rsatkichini (ROE) – 8,2 foizga va Bank aktivlari rentabelligi ko'rsatkichini (ROA) – 1,1 foizga yetkazish rejalashtirildi.

AT "Aloqabank"ning 2026-yil uchun mo'ljallangan asosiy ko'rsatkichlar rejasi.

mlrd. so'mda

Ko'rsatkichlar	2026 yil		
	Reja	Fakt	Bajarilishi
Aktivlar	36 400,0		
Majburiyatlar	31 664,0		
Xususiy kapital	4 736,0		
Jami daromad:	6 373,0		
<i>foizli daromad</i>	4 099,0		
<i>foizsiz daromad</i>	2 274,0		
Jami xarajat:	6 023,0		
<i>foizli xarajat</i>	3 073,0		
<i>foizsiz xarajat</i>	1 190,0		
<i>operatsion xarajat</i>	1 760,0		
Sof foyda	350,0		